

25-May, 2026-yil

KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAQOL HAMDA IBORALARNI TARJIMA QILISHNING LINGVOMADANIY VA STRUKTURAVIY TAHLILI

Xayriddinova Sohibaxon Baxtiyor qizi

TDSHU, 3-bosqich talabasi

+998931038221, jeonjungtu@gmail.com

Ilmiy rahbar: PhD Nazrullayeva Gulnoz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada agglyutinativ tillar sirasiga kiruvchi koreys va o‘zbek tillaridagi maqol hamda iboralarning lingvomadaniy va tarkibiy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida taomlanish madaniyati, mifologik hayvonlar (yo‘lbars va bo‘ri) hamda inson tana a‘zolari bilan bog‘liq frazeologizmlarning milliy-madaniy tabiati yoritib berilgan. Maqolalarni so‘zma-so‘z tarjima qilish oqibatida yuzaga keladigan g‘alizliklar tahlil qilinib, ularni tarjima tilidagi muqobil variantlar (ekvivalentlar) orqali o‘g‘irish qonuniyatlari ko‘rsatilgan. Maqolada madaniyatlararo muloqotda va badiiy tarjimada milliy kolorit hamda xalqaro dunyoqarashiy mushtarakliklarni saqlash masalalari ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tarjima nazariyasi, agglyutinativ tillar, lingvomadaniyatshunoslik, frazeologizm, maqol, milliy kolorit, somatik iboralar, ekvivalentlik, madaniyatlararo muloqot.*

Аннотация: *В данной статье представлен сравнительный лингвокультурологический и структурный анализ пословиц и идиом в корейском и узбекском языках, которые относятся к группе агглютинативных языков. В процессе исследования раскрывается национально-культурная специфика фразеологизмов, связанных с культурой питания, мифологическими животными (тигр и волк) и частями человеческого тела. Анализируются стилистические и смысловые ошибки, возникающие при буквальном переводе устойчивых выражений, и демонстрируются закономерности их передачи через адекватные эквиваленты в языке перевода. В работе научно обосновываются вопросы сохранения национального колорита и выявления межкультурных общностей в процессе художественного перевода.*

Ключевые слова: *теория перевода, агглютинативные языки, лингвокультурология, фразеологизм, пословица, национальный колорит, соматические идиомы, эквивалентность, межкультурная коммуникация.*

Abstract: *This article provides a comparative linguacultural and structural analysis of proverbs and idioms in the Korean and Uzbek languages, both of which belong to the agglutinative language family. The study explores the national and cultural nature of phraseological units related to food culture, mythological animals (the tiger and the wolf), and parts of the human body. The paper analyzes the semantic and stylistic inaccuracies that arise from literal translation of idiomatic expressions and demonstrates the principles*

of translating them through appropriate equivalents in the target language. The article scientifically substantiates the issues of preserving national coloring and identifying intercultural commonalities in the process of literary translation.

Keywords: *translation theory, agglutinative languages, linguaculturology, phraseologism, proverb, national coloring, somatic idioms, equivalence, intercultural communication.*

KIRISH

Tarjima - bu shunchaki bir tilni ikkinchi tilga o‘g‘irish emas, balki bu ikki madaniyat o‘rtasida ko‘prik o‘rnatish va ikki xalqni bir-birini o‘zaro tushunishiga xizmat qiluvchi o‘ziga xos vositadir. Tarjima bu faqat tilni tushunish emas, balki millat qalbini anglash demakdir. Ma‘lumki, koreys va o‘zbek tillari grammatik qurilishiga ko‘ra agglyutinativ tillar sirasiga kiradi. Agglyutinativ tillar -so‘z o‘zagi yoki negiziga qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida yangi so‘zlar hosil bo‘luvchi tillar. Agglyutinativ tillarda so‘zning o‘zak yoki asosini o‘zgartirmagan holda qo‘shimchalar qo‘shish bilan ma‘lum so‘z va shakl yasaladi, har bir qo‘shimcha muayyan ma‘no va vazifada xizmat qiladi. [1]

Tizimli o‘xshashliklar tarjima jarayonini osonlashtirsa-da, har bir xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi va tarixiy shakllanishi baribir o‘z tafovutlarini namoyon etadi. Aynan mana shu jihat maqol va iboralarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Maqol va iboralar har bir tilning rang-barangligini va uning boy tarixini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, bunday xalqona ifodalar muayyan millatning yashash tarzi, tabiati va urf-odatlarini asosida shakllangani bois, ularni tarjima qilishda tarjimondan yuksak mahorat hamda asardagi "milliy kolorit"ni saqlab qolish talab etiladi. Milliy kolorit deb badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar yig‘indisiga aytiladi. Kolorit lotincha “color” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, rang, bo‘yoq, manzara ma‘nosini bildiradi. Kolorit deganda tasviriy san’atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o‘zaro mutanosibliigi tushuniladi. Adabiyotda esa badiiy asarning o‘ziga xos xarakterli xususiyati: milliylik, davr, ma‘lum joyning o‘ziga xos jihatlari ifodasi ko‘zda tutiladi. [2]

Binobarin, sharqshunos olim Shoislom Shomammedov ham o‘z ilmiy ishlarida tarjimada milliy ruh va koloritni aks ettirish burch ekanligini bot-bot ta’kidlab o‘tganlar.

Asosiy qism

Insoniyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan taomlanish madaniyati frazeologizmlarning kelib chiqishida muhim rol o‘ynaydi. Biroq, har bir millatning oshxona madaniyati har xil bo‘lganidek, maqol va iboralarda ham bir xil ma‘noni anglatish uchun boshqa-boshqa obrazlardan foydalanilgan.

Masalan, koreys tilida biror-bir ish-harakatning juda oson va ortiqcha qiyinchiliksiz bajarilishini ifodalash uchun “**식은 죽 먹기**” [*sigeun juk meokgi*] maqoli keng qo‘llaniladi. Agar ushbu birlikni o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z o‘g‘irsak, “sovuq bo‘tqa yeyish” degan g‘aliz ma‘no kelib chiqadi. Ushbu maqolning konnotativ ma‘nosi ostida chuqur milliy-madaniy

25-May, 2026-yil

asos yotadi. Koreys oshxonasida bo‘tqa (죽) yumshoq va suyuq tabiati tufayli oson hazm bo‘ladigan va tez-tez iste‘mol qilinadigan taomdir. Ammo issiq bo‘tqani yeyish inson tilini kuydirishi yoki noqulaylik tug‘dirishi mumkin; u sovugandan keyin esa uni yeyish hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi. O‘zbek tilida ushbu til birligining semantik ma‘doshini to‘liq ochib beruvchi muqobil mavjud. Tarjima jarayonida kontekstga qarab uning o‘rniga “Xamirdan qil sug‘urganday” frazeologik ekvivalentidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘zbek xalqi madaniyatida xamir qorish allaqachon kundalik turmush tarzining ajralmas qismiga aylanib qolgan, tez-tez takrorlanadigan yumush bo‘lganligi bois, oson harakat aynan shu obraz orqali ifodalangan.

Har bir xalqning qadimiy e‘tiqodlari, mifologiyasi va dostonlari uning tilidagi hayvonlar obrazlari bilan bog‘liq frazeologizmlarda chuqur iz qoldiradi. Bir tildan ikkinchi tilga tarjima jarayonida xalqlarning milliy ramzlari va muqaddas hisoblangan hayvonlari o‘rtasidagi tafovutlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ushbu o‘ziga xoslikni koreys xalqining “호랑이도 제 말하면 온다” [*horangido je malhamyon onda*] maqoli misolida ko‘rishimiz mumkin. Mazkur maqol o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z “Yo‘lbars ham o‘zi haqida gapirsang keladi” deb o‘giriladi. Tabiiyki, bunday tarjimalar o‘zbek asarlarida matnning badiiy jozibasini pasaytiradi.

Koreys milliy madaniyatida yo‘lbars (호랑이) shunchaki bir yirtqich hayvon emas, balki jasorat, kuch, shon-sharaf va omadni ifodalovchi muqaddas ramzdir. Koreya adabiyoti, tasviriy san‘ati va folklorida ushbu obraz markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Masalan, koreys millatining eng qadimiy hisoblangan “Tangun afsonasi” (단군신화) dayoq yo‘lbars obraziga duch kelamiz. Shu sababli, yo‘lbarsni koreys xalqining milliy hayvoni va madaniy ramzi deb atash mutlaqo mubolag‘a emas.

O‘zbek va umuman Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatida esa bu kabi kontekstlarda tamoman boshqa hayvon obrazi ustuvorlik qiladi. Turkiy va mo‘g‘ul xalqlari mifologiyasida bo‘ri obrazi ozodlik, mardlik, qat‘iyatlilik va ashaddiy himoyachi sifatida e‘zozlanib kelingan. Shuning uchun ham xalq dostonlari va ertaklarimizda bo‘ri obrazini ko‘p marotaba uchratishimiz mumkin.

Aynan mana shu mifologik va dunyoqarashiy tafovutlar tufayli, koreys tilidagi yo‘lbars bilan bog‘liq ushbu maqol o‘zbek tilidagi “Bo‘rini yo‘qlasang, qulog‘i ko‘rinadi” frazeologik ekvivalentiga to‘liq mos keladi. Ikkala ibora ham so‘z borayotgan shaxsning to‘satdan paydo bo‘lib qolishini ifodalasa-da, har bir til o‘zining milliy-madaniy ramzlaridan(koreyslar yo‘lbarsdan, o‘zbeklar bo‘ridan) foydalangan.

Tilshunoslikda tana a‘zolari bilan bog‘liq maqol va iboralarga ko‘p ko‘zimiz tushishi mumkin. Inson tabiati va his-tuyg‘ulari barcha xalqlarda o‘xshash bo‘lganligi bois, o‘zbek va koreys tillarida bunday iboralarning ma‘nodoshlari ko‘p uchraydi.

Misol uchun koreys tilidagi “입이 가볍다” iborasi o‘zbek tiliga “Og‘zi yengil” deb tarjima qilinadi. O‘zbek tilida ham aynan sir saqlay olmaydigan, hamma gapni gapirib

25-May, 2026-yil

yuradigan odamlarga nisbatan ishlatiladigan bu ibora koreys tilidagi tarjimasi va ma‘nosi jihatdan bir xildir.

“코가 높다” – koreys tilidagi ushbu ibora so‘zma-so‘z “Burni baland” degan ma‘noni anglatadi. Kochma ma‘nosini taxlil qiladigan bo‘lsak, kibrli, g‘ururli va takabbur, boshqalarga past nazar bilan qaraydigan insonlarga qarata ishlatiladi. Qiziq jihati shundaki, o‘zbek tilida ham shu turdagi insonlarga “Burni ko‘tarilgan”, “Burni baland” iborasidan foydalanishadi. Har ikki xalq ham insonning kibrini yoki mag‘rurligini burunning vizual joylashuvi (balandligi) bilan bog‘lagani til madaniyatlarimizdagi o‘xshashlikni ko‘rsatadi.

Madaniyatlararo mushtaraklik va tafovutlar: ekvivalentlik muammosi

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, koreys va o‘zbek tillari o‘rtasidagi frazeologik munosabatlar uch turga bo‘linadi: to‘liq ekvivalentlar, qisman ekvivalentlar va ekvivalenti bo‘lmagan (beekvivalent) iboralar.

To‘liq ekvivalentlarga misol sifatida yuqorida ko‘rib o‘tilgan “코가 높다 — Burni baland”, “입이 가볍다 — Og‘zi yengil” kabi iboralarni keltirish mumkin. Bu holatlarda ikkala til ham bir xil tana a‘zosi (burun, og‘iz) orqali bir xil ma‘noni ifodalagan. Bunday mushtaraklik insonning universal psixologik-fiziologik tajribasidan kelib chiqadi.

Qisman ekvivalentlarga esa “호랑이도 제 말하면 온다 — Bo‘rini yo‘qlassang, qulog‘i ko‘rinadi” kabi juftliklar kiradi. Bu yerda ma‘no bir xil, ammo madaniy ramzlar farqli: koreyslar yo‘lbarsdan, o‘zbeklar esa bo‘ridan foydalangan. Tarjimon bu holda so‘zma-so‘z tarjimadan voz kechib, maqsad tildagi ekvivalentni tanlashi zarur.

Beekvivalent hollarga esa “식은 족 먹기” misolini keltirish mumkin. Unda ishlatilgan “sovuq bo‘tqa” obrazi o‘zbek tilida bevosita muqobili yo‘q — shuning uchun tarjimon “Xamirdan qil sug‘urganday” kabi ma‘nosi yaqin, lekin obrazi boshqa frazeologizmga murojaat qiladi. Bu esa tarjimada faqat leksik emas, balki madaniy ma‘no ham ko‘chirilishi lozimligini dalillaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, koreys va o‘zbek tilidagi maqol va iboralarni tahlil qilish jarayonida har ikki xalqning o‘xshash va farqli jihatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Ba‘zi o‘rinlarda madaniy tafovutlar sababli boshqacha, ba‘zi holatlarda esa insoniy o‘xshashliklar tufayli yaqin ma‘nolar ifodalangan.

Tadqiqot jarayonida to‘plangan materiallar shuni ko‘rsatadiki, agglyutinativ tillar bo‘lgan koreys va o‘zbek tillarida frazeologizmlar o‘xshash grammatik qurilishga ega bo‘lsa-da, ulardagi madaniy obrazlar ko‘pincha farq qiladi. Taomlanish madaniyatiga oid iboralarda (“식은 족 먹기” va “Xamirdan qil sug‘urganday”), hayvonlar tasviridagi ramziy farqlar (yo‘lbars va bo‘ri), shuningdek, somatik iboralardagi o‘xshashliklar (burun, og‘iz) bu xulosa uchun mustahkam dalil bo‘ladi.

Tarjimonning vazifasi esa so‘zlarni shundayligicha tarjima qilish emas, nafaqat unda yashiringan madaniy ramzlarni topish, balki milliy ruhni ham saqlab qolishdir. Maqol va

25-May, 2026-yil

iboralarni tarjima qilishda ekvivalentlik tamoyillariga qat’iy rioya qilish, maqsad xalqning madaniy kodlariga asoslanish — bugungi tarjimonlik mahoratining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmonova.D.A. KOREYS VA O‘ZBEK TILLARINING GRAMMATIK O‘XSHASHLIKLARI VA FARQLARI // Journal of Analytical Synergy and Scientific Horizon. – Toshkent, 2025. – B. 62.
2. ОЧИЛОВ.Э. МИЛЛИЙЛИК ВА ТАРЖИМА. БАДИЙ ТАРЖИМА МАСАЛАЛАРИ (ЎҚУВ ҚЎЛЛАНМА). - Тошкент, 2013. – В.37.
3. https://www.koreanwikiproject.com/wiki/%EC%8B%9D%EC%9D%80_%EC%A3%BD_%EB%A8%B9%EA%B8%B0
4. <https://www.korea.net/NewsFocus/HonoraryReporters/view?articleId=209070>
5. <https://czasopisma.uwm.edu.pl/index.php/pw/article/view/3192>
6. 김선정, 김성수, 이소현, 정재영. 살아 있는 한국어 속담.– 한국, 2007 – B. 19-23
7. 전민순 저. 문화 속 한국어 2. – 한국, 2009 – B. 28-30